

## ISLOMDA NISHONLANADIGAN BAYRAMLAR

To'ychimatova Dilrabo

FarDU talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1527731>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada islom madaniyatida keng nishonlanadigan ikki asosiy bayram — Ramazon va Qurbon hayitlarining tarixiy kelib chiqishi, diniy mazmuni, jamiyatdagi ijtimoiy-ma'naviy roli va ularning islom sivilizatsiyasidagi o'rni keng yoritilgan. Hayitlarning paydo bo'lish sabablari, ularni nishonlash an'analari, zamonaviy davrda tutgan o'rni haqida tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Islom madaniyati, Ramazon hayiti, Qurbon hayiti, diniy bayram, madaniy meros, ijtimoiy birlik, tarix, Qur'on, Farz, Sunnat, Iyd, Ikrom.

**Kirish.** Islom madaniyati insoniyat tarixida chuqur ildiz otgan, o'ziga xos axloqiy, diniy va ijtimoiy qadriyatları bilan ajralib turadigan boy sivilizatsiyalardan biridir. Bu madaniyat asrlar davomida nafaqat dini e'tiqod va ibodatlar tizimini, balki kundalik hayot tarzini, insonlar o'rtasidagi munosabatlarni ham shakllantirib kelgan. Ayniqsa, islomda bayramlar muhim o'rinnegallab, ular jamiyat hayotining ajralmas bir qismi sifatida qaraladi.

Mazkur maqolada islom madaniyatida keng nishonlanadigan ikki asosiy diniy bayram Ramazon hayiti va Qurbon hayitining kelib chiqishi, diniy mazmuni, jamiyatdagi o'rni va ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, bu bayramlarning musulmonlar hayotidagi tarbiyaviy va axloqiy funksiyalari, ularni nishonlash an'analari hamda zamonaviy davrdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Islom madaniyati o'zining boy tarixiy ildizlari, ruhiy poklikka asoslangan qadriyatları, yuksak axloqiy me'yorlari bilan ajralib turadi. Bu madaniyat nafaqat diniy e'tiqodlarni, balki kundalik turmush tarzini, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni ham belgilab beradi.

Xususan, Ramazon va Qurbon hayitlari musulmon dunyosida eng ulug' va umumxalq darajasida keng nishonlanadigan diniy bayramlaridir. Ular nafaqat ibodat, balki jamiyatda mehr-oqibat, birlik, saxovat, insoniylik balki jamiyatda mehr-oqibat va birdamlikni o'stirishga xizmat qiluvchi muqaddas kunlardan biri sanaladi.

"Hayit" so'zi arab tilidan kirib kelgan so'z bo'lib, "iyd" – bayram, ma'nosini bildiradi. Ramazon hayiti (Iyd as-sig'ar, Iyd al-fitr) va Qurbon hayiti (Iyd al-kabir, Iyd al-adho).

Musulmon olamida hayit kunlari oy taqvimi asosida belgilanadi. Qurban hayiti zulhijja oyining o‘ninchি kuniga to‘g‘ri keladi.<sup>1</sup>

Qurbanlik hijriy ikkinchi yilda vojib bo‘lgan bo‘lsa-da, lekin uning tarixi ancha uzoqlarga – Ibrohim alayhissalom zamonlariga borib taqaladi va u zotdan bizga qolgan amallardan biridir.

Ibrohim alayhissalomga tushlarida: “Siz o‘z farzandingizni jonini bizga fido qiling” degan amr bo‘ldi. Ibrohim alayhissalom bu hukmni Ismoil alayhissalomga bayon qildilar.

Ismoil alayhissalom esa “Ey otajon, sizga (tushingizza Parvardigor tomonidan) buyurilgan ishni qilging. In shaa Alloh meni sabr qilguvchilardan topursiz” dedilar. “Ey Ibrohim! Siz o‘z ishingizni qiling, men o‘z ishimni qilaman. Chunki sizga boshqa hukm, menga boshqa hukm buyurilgan”, dedi.<sup>2</sup>

Darhaqiqat pichoqqa “O‘tmas bo‘l” deb hukm bo‘lgan edi, u o‘tmas bo‘lgandi. Ibrohim alayhissalomga esa “So‘ying” deb hukm bo‘lgan edi, ular so‘yishga kirishdilar. Shu paytda g‘aybdan ovoz keldi: “Ey Ibrohim, darhaqiqat sen (ko‘rgan) tushingni rost-bajo qilding”. Ibrohim alayhissalomning bu amallariga qurbanlik qilish masalasi tortib topdi. Alloh taolo uning bu amaliga nihoyatda “ulkan amal” deb baho berdi. Chunki u zot o‘z taraflaridan qilinishi kerak bo‘lgan ishni mukammal ado etgan edilar. Ular o‘g‘illarini so‘yishga yotqizib, uning bo‘yniga pichoq tortayotgan vaqtlarida pichoqqa “so‘yma” deb amr bo‘lganini bilmagan va pichoq ham o‘z ishini qilmasligidan bexabar edilar. Balki, “pichoqni tortaman va shu bilan qurbanlik ishi tamom bo‘ladi” deb o‘ylagan edilar.

Bu qissa haqida Alloh shunday bayon qiladi:

“Albatta Biz chiroqli amal qilguvchilarni mana shunday mukofotlarmiz. Albatta bu (ya’ni Ibrohimning o‘z o‘g‘lini qurban qilishga buyurilishi) ochiq-ravshan imtihondir xolos. Biz (Ismoilning) o‘rniga (Ibrohimga) katta bir (qo‘chqor) so‘yishni – qurbanlikni evaz qilib berdik (ya’ni katta bir qo‘chqorni jannatdan tushirdik)”.<sup>3</sup>

Payg‘ambar alayhissalom sahabai kiromlarga Islom ta’limotlaridan tushuntirish olib boruvchi suhbatlaridan birida Qurban bayrami haqida, uning musulmon ummati hayotida tutgan o‘rni haqida so‘z yuritib quyidagilarni aytdilar: “Qurbanlik kunini iyd qilishga amr qilindim. Uni Alloh bu ummat uchun qilgandir”, dedilar. Qurban hayitining asosiy maqsadi — Alloha bo‘lgan sadoqat va ishonganlarning o‘zaro mehr-oqibatini ko‘rsatishdir. Bu bayramda musulmonlar maxsus taomlar tayyorlab, ularni oilalariga va ehtiyojmandlarga tarqatadilar.

<sup>1</sup>. Imam G‘azzoliy. “Ihyo ulumiddin” – Diniy-ma’rifiy asar. – Qohira, XII asr. (ro‘za va axloqiy poklanish haqida mulohazalar uchun)

<sup>2</sup> Imam Muslim. “Sahih Muslim” – Hadislar to‘plami. (Hayit va ibodatlar bilan bog‘liq hadislar uchun)

<sup>3</sup> Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Islom aqidasi”, “Hadis va hayot” kitoblari. – Toshkent: Hivil nashriyoti, 2000-yillar.

Ro'za Islom dinining besh ruknidan biridir. Islom dinida ro'za Rasuli Akram sallollohu alayhi vassallam Madinaga hijrat qilganlarning ikkinchi yili farz qilindi. Payg'ambarimiz alayhissalom vafotlarigacha to'qqiz marotaba ramazon ro'zasini tutganlar. Ro'za Parvardigor tomonidan har bir musulmonga farz qilingan quroni karimda ro'za haqidagi oyatlarda shunnday deyiladi: Ramazon oyi- unda odamlar hidoyat hamda hidoyatu furqondan iborat ochiq oydin hujjatlar bo'lib Quron tushirilgandir. Bu haqida Ibn Umar roziyollohu anhudan rivoyat qilingan hadisda Payg'ambarimiz sallollohu alayhi vasallam shunday deganlar. "Islom beshta narsa ustiga qurilgandir: Allohdan o'zga iloh yo'qligi va Muhammad allohning elchisi ekanligiga guvohlik berish, namozni qoim qilish zakod berish, Baytullohni haj qilish, ramazon ro'zasini tutish "(Imom Buhoriy va Imom Muslim rivoyati)

Demak nur ustiga nur bo'lishi uchun Islom shariatida ro'za aynan ramazon oyida Quron nozil qilingan oyda tutilishi joriy qilingan. Zero Islom nuri aynan shu oydan boshlab yer yuzasiga singigan.<sup>4</sup>

Payg'ambarimiz sallollohu alayhi vasallam ro'za haqida shunday dedilar: odam bolasining barcha amaliga (savob) ko'paytirib beriladi. Bir yaxshi amaliga o'n barobardan yetti yuz barobarigacha savob bor. Alloh azza va jalla faqat ro'za unday emas uning mukofotini o'zim beraman. Ahir bandam shaxvatini taomini men uchun tark qilyapti deb aytadi. "Xújjatul-islom imom G'azzoliy o'ziga hos uslubda ro'zaning maqsadlariga ishora qilar ekan, shundai deidi:"

Ro'zadan maqsad Alloh taolonning hulqlaridan bir hulq – behojatlik bilan hulqlanish, nafs istaklaridan imkon qadar tiyilish orqali, pok farishtalarga iqtido qilishdir.

Ro'zadan ko'zlangan asosiy maqsadlardan biri musulmon shaxsda Alloddan qo'rqish hissini uyg'otishdir. Unda Allohning roziligi uchun o'z hoxish-istiklariga qarshi kurasha olish malakasini hosil qilishdir. Chanqab, ochiqib turgan insonning Alloh aytgan fursatgacha bir qultum suv yutmay yurishi, hech kim ko'rmaydigan, hech kim sezmaydigan paitda ham og'ziga bir luqma taom solmay turishi o'sha insonning uni Alloh doimo kuzatib turganini his qilishidan bo'ladi. Bu his uni har qanday holatda yaxshilik, savob ishlar qilishga, har qanday vaziyatda yomonlikdan, gunohlardan tiyilishga olib keladi. Bir oy davomida o'zini ana shunday holda tutgan kishi yil bo'yи, balki bir umri davomida ezgu hayot kechirishga qodir bo'ladi. Allohnin rozi qilish uchun halol narsalardan o'zini tiya olgan shaxs U zotting rizosi uchun harom narsalardan mutlaqo tiyilishga o'zida yetarli kuch-qudrat va malakani hosil qiladi.

---

<sup>4</sup> Qur'oni Karim. Tarjimasi va tafsiri. – Toshkent: Hivil nashriyoti, turli yillar.

Ochlik ila kishilarni davolab nom chiqarayotgan kishilardan biriga: "Siz" «Alloho his etish, ibodat qilishga ruju, qisqasi, taqvodorlik», deb javob berdi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Ro'za qalqondir", – deganlar.<sup>5</sup>

Ha ro'za qalqondir- u o'z sohibini shahvat hujumlaridan to'sadi.

Ro'za qalqondir u o'z sohibini gunohlardan to'sadi.

Ro'za qalqondir, u o'z sohibini unga zararli bo'lgan narsalardan to'sadi.

Ro'za qalqondir u o'z sohibini do'zah olovidan saqlaydi deganlar.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam shahvati g'alaba qilayotgan, ammo o'ylanishga imkon topa olmayotgan kishilarga ro'za tutishni tavsiya qilganlar. Insonni ikki dunyo saodatiga erishtiradigan fazilat va hususiyatlarni uzlashtirish aynan ro'za bilan yuzaga chiqadi. Insonlarga ular uchun zarur bولган amalni farz qilganligi ham Parvardigorning o'z bandalariga mehribonligidandir.

Chunki inson o'zi uchun kerak bo'lgan har bir foydali narsani bilavermaydi. Bilgan taqdirda ham, o'z ixtiyori bilan o'sha ishni bajarishi qiyin. Bu bayram Ramazon oyining tugashini bildiradi.

Ramazon — musulmonlar uchun o'ta muqaddas oy bo'lib, ramazon oyining oxirgi kunlarida musulmonlar Ramazon hayitini nishonlashadi. Bu kun odatda ehtiyojkorlik bilan tayyorlanadi va ularning markazida Ramazon oyida o'tkazilgan ibodatlar, o'zgarishlar va ezgulikka bo'lgan intilishlar ifodalanadi. Bayramda musulmonlar bir-biriga yaxshi tilaklar bildiradi, ko'pincha bir-birini tabriklab, yordamga muhtojlarga sadaqa berishadi. Ramazon hayitining boshlanishi odatda uyushganlik va jamoa bilan boshlanadi. Hayit namozi barcha musulmonlar tomonidan o'qiladi.

Ramazon hayiti bilan birga, musulmonlar o'zlarining ehtiyojmand qishloqlaridagi yoki shaharlardagi muhtojlarga ko'mak berishadi. Bu nafaqat ma'naviy boylikni, balki ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.<sup>6</sup>

Hayit kuni odamlar o'z oilalarini, do'stalarini va qo'shnilarini tabriklab, o'zaro mehr-oqibatni oshirishadi. Bu kunning diniy mazmuni shundan iboratki, u musulmonlarning o'zaro mehr-oqibatda, birdamlikda yashashga bo'lgan yuksak istagini ko'rsatadi.

**Xulosa.** Islom madaniyatida nishonlanadigan Ramazon hayiti va Qurbon hayiti musulmon jamiyatlarida nafaqat diniy, balki ijtimoiy-ma'naviy jihatdan ham muhim o'rin egallaydi. Ular Allohga bo'lgan sadoqatni, sabr-toqatni, mehr-oqibat va saxovatni targ'ib etuvchi bayramlardir.

Ramazon hayiti ibodat, ro'za, sabr va ruhiy poklanishning yakuni sifatida nishonlansa, Qurbon hayiti Allohga bo'lgan sadoqat va fidoyilikning ramzi sifatida qadrlanadi.

<sup>5</sup> Islom ensiklopediyasi. – Toshkent: "Sharq" nashriyoti, turli yillar. (Ramazon va Qurbon hayitlari tarixi va mazmuni haqida)

<sup>6</sup> Imom Buxoriy. "Al-Jome' as-Sahih" – Eng ishonchli hadislar to'plami. (Qurbonlik va ro'za haqidagi hadislar uchun).

Bu bayramlar islomiy qadriyatlarni mustahkamlabgina qolmay, insonlar orasida ijtimoiy tenglik, o‘zaro yordam, birdamlik va mehr-oqibatni kuchaytiradi. Shuningdek, ular tarixiy, diniy va ma’naviy meros sifatida musulmon ummatining birligi va hamjihatligiga xizmat qiluvchi muqaddas kunlar hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qur’oni Karim. Tarjimasi va tafsiri. – Toshkent: Hilol nashriyoti, turli yillar.
2. Imom G‘azzoliy. “Ihyo ulumiddin” – Diniy-ma’rifiy asar. – Qohira, XII asr. (ro‘za va axloqiy poklanish haqida mulohazalar uchun)
3. Imom Buxoriy. “Al-Jome’ as-Sahih” – Eng ishonchli hadislar to‘plami. (Qurbanlik va ro‘za haqidagi hadislar uchun)
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Islom aqidasi”, “Hadis va hayot” kitoblari. – Toshkent: Hilol nashriyoti, 2000-yillar.
5. Islom ensiklopediyasi. – Toshkent: “Sharq” nashriyoti, turli yillar. (Ramazon va Qurban hayitlari tarixi va mazmuni haqida)
6. Imom Muslim. “Sahih Muslim” – Hadislar to‘plami. (Hayit va ibodatlar bilan bog‘liq hadislar uchun)